

BOLALARDA HAMSHIRALIK PARVARISHINING XUSUSIYATLARI

Navoiy viloyati Zarafshon shaxar Maktab va maktabgacha ta'lim bo'limiga qarashli

13-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti xamshirasi

Ergashova Firuza Gafurovna

Hamshira haqida so'z Mustaqil Respublikamizning kelajagi birinchi navbatda aholining sog'ligiga, kishilarning salomatligini muhofaza qilish esa tibbiyot xodimlarining bilim saviyasi, malakasiga, bilim hamda tajribalarini ish jarayonida o'z vaqtida to'liq mas'uliyat bilan oqilona bajarishlariga bog'liq. Sog'liqni saqlash tizimida tibbiyot hamshirasining o'rni beqiyosdir. «Hamshiralik ishi» mutaxassisligini egallagan tibbiyot xodimi jahon andozalariga javob beradigan har tomonlama yetuk, sohaning barcha jabhalarida ishlay oladigan, davolash ishlari bilan bir qatorda kasallikning oldini olishda ham keng ko'lamlı faoliyat ko'rsatadigan kadr hisoblanadi. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, Rossiyada Pyotr I tomonidan 1715 yilda tarbiya uylari tashkil qilinib, u yerda birinchi marta ayollar bemorlarni parvarish qilganlar, muolajalarni bajarishi uchun maxsus hamshiralar bo'lmagan. 1803 yilda Moskva va Sank-Peterburgda uysiz ayollar uchun «Bevalar uyi» tashkil qilingan. O'sha yildan hamshiralik ishi boshlangan deb hisoblaniladi. 1818 yilda Moskvada «Mehr-muruvvat» ayollar instituti tashkil qilinib, kasalxonada kasal boquvchilar uchun maxsus kurs ochilgan. Butun dunyoda hamshiralik ishi asoschisi Angliyalik hamshira Florens Naytingeyl (1820-1910) hisoblanadi. Florens Naytingeyl 1859 yili o'zining «Bemorlar parvarishi to'g'risidagi yozuvlar» degan kitobida – «Hamshiralik ishi bemorni qurshab turgan muhitni uning sog'ayish yo'lida qo'llash uchun yo'naltirilgan harakatdir» - deb, yuqori baho bergan. Xalqaro Qizil Xoch jamiyati 1912 yilda Florens Naytingeyl medalini ta'sis qiladi. YAxshi ishlab, hamkasblariga o'rnak bo'lgan hamshiralar ushbu medal bilan mukofotlanganlar. 1958 yilda amerikalik olim Virjiniya Xenderson «Bemorlarni parvarishlashning asosiy qoidalari degan» kitob yozadi. Unda hamshiralarning bajaradigan ishlari, vazifalari umuman, «Hamshiralik ishi» tushunchasiga izoh beriladi.

1978 yilda Yangi Zelandiyada bo‘lib o‘tgan «Xalqaro hamshiralilar kengashi» ushbu kasb kishilariga quyidagicha “Hamshiralik ishi sog‘liqni saqlash tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, salomatlikni mustahkamlashni, kasallikning oldini olish, jismonan va ruhan xastalangan bemorlarga yordam ko‘rsatish, ularni parvarishlash hamda barcha yoshdagi ishga layoqatsiz guruhlariga madadkor bo‘lishni o‘z ichiga oladi» - deya ta’rif beradi. Xususan Navoiy viloyati Zarafshon shahar maktab va maktabgacha ta’lim bo‘limiga qarashli ”Nihol” nomli 13 sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkilotida ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-son “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari tug‘risida”gi Farmoniga muvofiq tashkilot tarbiyalanuvchilariga birlamchi tibbiy-sanitariya va profilaktik yordam hamda reabilitatsiya tadbirlari tashkil etilib, tibbiy ko‘rik natijalariga asoslangan holda, tarbiyalanuvchilarni sog‘lom bo‘lishlari, jismoniy mashg‘ulotlar va sport bilan shug‘ullanishlari uchun salomatlik yo‘nalishlarida tavsiyalar berib kelinmoqda. Tarbiyalanuvchilar orasida aniqlangan kasalliklarni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlab, ularni bartaraf etish yuzasidan tegishli choralar ko‘rilmoqda va emlash jadvali asosida mavsumiy hamda bola yoshiga mos emlash ishlari olib borilmoqda. SHuningdek ovqatlanish jarayonlariga ham katta e’tibor qaratilgan holda, bolalar ovqat ratsionini shakllantirishda Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan va Respublika sanitariya-epidemiologiya osoishtaligi va jamoat sog‘lig‘i xizmati bilan kelishilgan namunaviy mavsumiy (kuzgi, qishki, bahorgi va yozgi) taomnomalar asosida taomlar tayyorlanmoqda. Mahsulotlar kun davomida to‘g‘ri taqsimlanib, oqsilga boy mahsulotlar yog‘ bilan berilganda bola oshqozonida uzoq vaqt saqlanib turishi va ko‘proq miqdorda hazm qildiruvchi me’da shirasini talab qilishi bois, tarkibida go‘sht, baliq, tuxum kabi mahsulotlari bor taomlarni kunning birinchi yarmida (nonushta va tushlikka) berilmoqda. Kechki ovqatda bolalarga sutli va sabzavotlardan tayyorlangan yengil hazm bo‘ladigan taomlar berilmoqda. Tarbiyalanuvchilar uchun taomnomaga sut, go‘sht, sariyog‘, yorma, non, meva, sabzavot, shakar kabi biologik qiymatga ega bo‘lgan mahsulotlar har kuni kiritiladi. Bolalar taomnomasida sabzavotli salatlar, yangi mevalar (har kuni), uchinchi taom sifatida yangi yoki quruq mevalardan

tayyorlangan kompot, sutli ichimliklar, shuningdek, bolalar uchun sutli, sabzavotli, mevali bo‘tqalar ko‘proq kiritilib, bolaga kun davomida 2 ta sabzavotli taom va bir marta yormali taom, sabzavotlardan aralashma garnirlar tayyorlanmoqda. Tashkilotga kelgan ota onalar va xodimlar o‘rtasida muntazam ravishda sanitar oqartuv ishlari tashkilot direktori tomonidan tasdiqlangan yillik va oylik rejalar asosida olib borilmoqda. Har hafta chorshanba kuni qilingan ishlar va o‘tkazilgan ma‘ruzalar haqida hisobot topshirilib, olib boriladigan sanitar oqartuv ishlarimiz birinchi navbatda kasalliklarni oldini olishga qaratilgan. Qolaversa kasallik yuqtirib olgan bolalarni parvarishlash, parxezlar, ya‘ni bemor bolani ovqatlantirish va davolash haqida maslahatlar beramiz. Tashkilotimizda haftaning har juma kuni ma‘naviyat va ma‘rifat kuni o‘tkaziladi. Respublikamiz hayotiga oid yangiliklar, iqtisodiy va siyosiy rivojlanish va boshqa ma‘naviyat va ma‘rifat mavzusidagi ma‘ruzalar o‘qiladi. Buyuk allomalar, shoir va yozuvchilar tavallud kunlariga she‘rxonlik kechalari o‘tkaziladi. Bundan tashqari Respublikamizning siyosiy va iqtisodiy rivojlanishi haqida ma‘ruzalar o‘qiladi. Hamshira bolani qabul qilgach, barcha javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi. Bu borada u bolani parvarish qiladi, davolaydi va sog‘lig‘ini tiklab olishiga yordam beradi. Agar bola terminal holatda yotgan bo‘lsa, sog‘ayib ketishiga ishonch bo‘lmasa, hech bo‘lmaganda bemor bolaning qolgan vaqtini qulayliklarda o‘tkazishga harakat qilish kerak. Yana u bolalarda salomatligini tiklab olishiga xohish, ishonch va intilishni kuchaytira olishi kerak. Bolalar parvarishida hamshiralik jarayonining vazifalaridan biri bemor bolaning oila a‘zolari, ayniqsa onasi bilan yaxshi muomala qilish. Davolash jarayonida onaning o‘z bolasi yonida bo‘lishi, bola bilan yanada yaqinlashish, muloqot qilish, uy sharoitida davolash va parvarish qilish ko‘nikmalarini egallashga yordam beradi. Oila a‘zolariga parvarish ko‘nikmalarni o‘rgatishda malakali hamshiralar katta rol o‘ynaydilar. Amalga oshirilayotgan yordam bola va uning oila a‘zolarining tabiiy kuchiga ham bog‘liqdir. Oxirgi xulosaga kelishda, bola va uning oila a‘zolarining so‘nggi so‘zi muhimdir. Sog‘liqni saqlashda hamshiralik parvarishi sog‘liqni mustahkamlash va kasalliklarni oldini olishda katta rol o‘ynaydi. Shuningdek, kasallikning yengil og‘irligiga qaramay bemor bolalarda ishonch uyg‘otish, dardiga malham bo‘lish, tanadagi og‘riqni

kamaytirish, hayotdan zavqlanib yashashga umid uyg‘otib borishi lozim. Qobiliyatlari yanada takomillashadi, shakllanadi va u bilan bemaol hamkorlik qilish mumkin. Asosan kichik bog‘cha yoshidagi bolalar hamshiralar bilan tez muloqotga kirisha oladilar. Bolalar tibbiy asbob-anjomlarga juda qiziqadilar va ularni ushlab ko‘rgilari, o‘ynagilari keladi. Bularni ushlab ko‘rishga ruxsat berib, bolalarni tinchlantirish mumkin. Bu yoshda oila a‘zolarining va ota-onaning ishtirok etishi bolani tinchlanishga yordam beradi. Tekshirishlar vaqtida bolani mustaqil kiyinishiga ruxsat berish kerak.